

DISTINCTIVENESS OF DIALECT OF KARAKOL DISTRICT

F. J. Muradova

Chirchik State Pedagogical University

Teacher of the Department of Uzbek Linguistics

ABSTRACT

This article talks about noticeable differences in the grammatical structure of dialects. In particular, the classification of adverbs used in the Karakol district dialect will be discussed.

Keywords: dialect, dialect, Bukhara dialect, literary norm, grammatical specificity, phonetics of dialects.

QORAKO'L TUMANI DIALEKTINING O'ZIGA XOSLIGI

F. J. Murodova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dialektlarning grammatik qurilishida ko'zga tashlanuvchi tafovutlar haqida so'z boradi. Xususan, Qorako'l tumani dialektida qo'llanilib kelinayotgan qo'shimchalar tasnifiga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, Buxoro dialekti, adabiy me'yor, grammatik o'ziga xoslik, shevalar fonetikasi.

Shevalar o'zi muomalada bo'lib kelayotgan hududning tadrijiy-tavsifiy manzarasini aks ettiradi. Ya'ni shevalar o'z-o'zidan kelib chiqmaydi, o'sha hudud aholisining ijtimoiy kelib chiqishi yoki kundalik turmush tarzi orqali shakllanadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-an'anaviy qadriyat hisoblanadi. Aslida, ona tili deganda shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. [1; 12) Shu sababli ham dialektlar turli ko'rinish va xilma-xil talaffuzga egadir. Tabiiyki, shevalar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ma'lum hududga xos bo'ladi. Biroq mazkur dialekt tarkibida ham umumiy va o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'ladi. Bu esa shevalar turlichaligini o'zida namoyon qiladi. Quyida qarluq shevasi tarkibiga kiruvchi Buxoro dialektining tarmoqlaridan bo'lgan Qorako'l tumani shevasida uchrovchi ayrim grammatik o'zgarishlarga to'xtalib o'tamiz. Buxoro viloyati dialekti talaffuzi jihatdan velyar xususiyatga egadir. Talaffuzda tovushlarning qattiqlashish xususiyati bilan boshqa dialektlardan farq qiladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, Buxoro viloyatidagi Qorako'l va Olot tumanlari shevasi ayrim jihatlari bilan bu dialektdan ajralib turadi. Grammatik xususiyatiga ko'ra Qorako'l tumani shevasida ham boshqa shevalarda yuz bergani kabi qaratqich kelishigi qo'shimchasining o'rnida tushum kelishigi qo'shimchasining ishlatilishi mumkin. Masalan, *akamning telefoni* emas, *akamni telefoni*, *mening sumkam* emas, *meni sumkam* tarzida talaffuzda qo'llanish holatlari mavjud. Yana bir e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat borki, bu holat ham kelishik

qo'shimchasining qo'llanishi bilan bog'liq. Odatda, Buxoro dialektining xususiyati sifatida chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rnida, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatdan farqli o'laroq Qorako'l tumani dialektikti qo'shimchaning qisqartirib talaffuz qilinishi kabi ko'rinishi mavjud. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining dastlabki tovushi talaffuzda tushib qoladi, masalan, *uyga ketdim* shaklida qo'llanmasdan *uya kettim* tarzida talaffuz qilinadi. Ba'zi hollarda esa *-ga* kelishik shaklining *-ya* ko'rinishi ham ko'zga tashlanadi. Ya'ni *buvimnikiga ketdim* birikmasi, *buvimkiya kettim* shaklida talaffuz qilinadi. Ushbu birikmada tushum kelishigi qo'shimchasining tushib qolish holati mavjud. Bu holat doimiy ravishda takrorlanib turmaydi, ayrim hollarda mazkur kelishikgan so'ng qo'shimcha qo'llangan vaziyatda mana shunday ko'rinish yuzaga kelishi mumkin.

Tushum kelishigining dialektidagi xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, *-ni* kelishik shakli yakka holda qo'llangan vaziyatda *-n* tovushining tushib qolishi ham kuzatiladi, jumladan, *ukamni chaqir* birikmasi talaffuzda *ukami chaqir* tarzida qo'llanadi. Bundan tashqari, grammatik qo'shimchalarning o'zgarish holatlari zamon qo'shimchalarida ham bevosita ko'rinish beradi. Ya'ni *aytdi* o'tgan zamon fe'lida qo'llangan *-di* ko'makchi morfemasi muloqot jarayonida *aytti* tarzida shakllanadi. Bu holat, albatta, jarangli tovushning jarangsiz tovushga moslashishi natijasida yuz bergan. *-yap* hozirgi zamon qo'shimchasi ham mazkur dialektida ma'lum bir o'zgarishga uchraydi. Ushbu morfema talaffuzda *-op* sifatida qo'llaniladi. Xususan, *kelyapti, ketyapti, bajaryapti* fe'llari *kelopti, ketopti, bajaropti* tarzida qo'llanadi.

Ushbu shevaning fonetik xususiyatlarida ham o'ziga xosliklar mavjud. Ko'p hollarda tovush almashish hodisasi adabiy tildagi so'zlarning talaffuzdagi o'zgarishlarida namoyon bo'ladi. *U yoqqa, bu yoqqa* kabi o'rin-joy ravishlari muloqot jarayonida *q* tovushining *g'* tovushiga almashish holatlari so'zimiz isbotidir: *u yog'a, bu yog'a* tarzida. Mazkur holat unlilar tasnifida ham ko'zga tashlanadi. Talaffuzda *u* unlisining *o'* va *o* unlilariga almashishi shevada yuz berayotgan o'zgarishga xosdir. Xuxuxan, *uy* so'zining *o'y*, *buva* so'zini *bova* tarzida talaffuz qilinadi.

So'zlardagi *o* va *a* tovushlarining o'rni hech bir qonuniyatsiz almashinib turadi: *qora-qara, olma-alma, somon-samon, tomon-tamon*. Nutqda *o* unlisining *a* unlisiga, shuningdek, aksincha almashib turish holatlari uchraydi: *kosov-kasov, ag'darmoq-og'darmoq, Bahodir-Bohodir, baho-boho*. [3; 16] Qorako'l tumani dialektini o'rganish jarayonida yana bir jihatga amin bo'linadiki, aynan mana shu tumanda ham shevalarning turli tarmoqlari muomalada o'zini namoyon qilib kelmoqda. So'zimiz avvalida Buxoro viloyati Qorako'l tumani shevasining qarluq shevasiga mansubligini aytib o'tgandik. Biroq ushbu sheva tarkibida o'g'uz va qipchoq shevalarining ham ta'siri sezilarli darajada mavjud. Qorako'l tumani Sayot mahallasi aholisining muloqot jarayonida shunga guvoh bo'lamizki, mazkur sheva talaffuz xususiyati o'g'uz shevasiga yaqinroq. Ya'ni talaffuzda *qilovuz, ketovuz, aytovuz* shakllari yetakchilik qiladi. So'zlarning bu tasnifdagi ko'rinishi, albatta, o'g'uz shevasiga xos xususiyatdir. Ushbu tumanning Quvacha mahallasida esa qipchoq shevasining tasnifi ko'zga tashlanadi. Quvacha shevasida ko'proq *j* lashish holatlari mavjud: *keljaqmisan, ketjakmisan* kabi. Demakki, hududga nisbatan shevaning ma'lum turini aynan belgilab qo'yish bu biroz noo'rindir. Bunga sabab aholining kelib chiqishi va yashayotgan hududidagi ijtimoiy o'zgarishlarning jamiyat a'zolarining so'zlashuv uslubida aks etganligidandir. Biror bir hududning dialektini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi o'sha hududga chegaradosh shevalardan ham ma'lum darajada xabardor bo'lishi

talab qilinadi. Bu holat esa nafaqat o'sha hudud dialekti bilan tanishish imkoniyatini berishi mumkin, balki aholining etnogenezi bilan bog'liq bilimlarning yuzaga chiqishi uchun ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2016. 150 b.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021. 175 b.
3. G'aybullayev S. Qorako'l shevasining tarovati. Toshkent-2017
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1996. 302 b.
5. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 110 b.
6. Enazarov T.J. Dialektologiya metodologiyasi. – Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2020. 151 b.
7. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1978. 232 b.
8. Murodova, F. (2021). Adabiyot darslarida kichik epik janrlarni xalqaro tadqiqot talablari asosida o'tish texnologiyasi (8-sinf darsligidagi Sh. Xolmirzayevning “ot egasi” hikoyasi asosida). *Academic research in educational sciences*, 2(4), 683-687.
9. Murodova, F. (2021). ABDULLA QODIRIY ASARLARINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 2(5), 120-125.
10. Murodova, F. J. (2022). EPOS JANRIGA BIR NAZAR. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, 5(24), 284-286.
11. Murodova, F. J. (2022). Maktab adabiyot darslarida hikoya janridan foydalanish. *Til va adaboyit ta'limi*, 2(5), 7-8.
12. ШОФҚОРОВ, А. М.; МУРОДОВА, Ф. Ж. (2021). МАСТЕРСТВО ОЙБЕКА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ СЛОВ. *Экономика и социум*, 12(91), 1169-1173.
13. Shofqorov, A. M., & Murodova, F. J. (2021). So'zning tarkibiy qismlari mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1003-1005.
14. Shofqorov, A. M., & Murodova, F. J. (2021). ОУБЕКНИНГ СО ‘З ҚО ‘ЛЛАШ МАНОРАТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 76-80.